

№480, 10-fevral, 2022 y.

COVID-19 ga qarshi vaksinalarning  
ishlanmalari bo'yicha

**DAYJEST**

O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi  
Ilmiy-texnik axborot markazi











Toshkent-2022

# Jahonda pandemiya bilan bog'liq vaziyat

2022 y. 9-fevral holatiga ko'ra

Umumiy zararlanganlar soni	-	400 956 600	(+ 2 615 682)
Sog'ayganlar soni	-	320 723 585	(+ 3 054 616)
Vafot etganlar soni	-	5 782 302	(+ 12 527)

## Mamlakatlar bo'yicha bemorlar soni

	AQSh	-	78 556 193	(+ 179 169)
	Hindiston	-	42 410 976	(+ 71 365)
	Braziliya	-	26 776 620	(+ 171 483)
	Fransiya	-	21 039 639	(+ 235 267)
	Buyuk Britaniya	-	17 932 803	(+ 66 183)
	Rossiya	-	13 147 666	(+ 165 643)
	Turkiya	-	12 446 111	(+ 111 096)
	Italiya	-	11 765 767	(+ 101 864)
	Germaniya	-	11 411 464	(+ 212 724)
	O'zbekiston	-	231 871	(+ 692)

Manba: <https://www.worldometers.info/coronavirus/>



# O'zbekistonda COVID-19 qarshi vaksinatsiya bo'yicha hisobot

2022 y. 8-fevral holatiga ko'ra

Hududlar	Jami emlanganlar soni	Bir kunda emlanganlar soni
Qoraqalpog'iston Respublikasi	2 148 067	4 212
Andijon viloyati	4 130 229	11 179
Buxoro viloyati	2 367 207	4 683
Jizzax viloyati	1 472 837	2 548
Qashqadaryo viloyati	3 326 565	14 805
Navoiy viloyati	1 350 141	1 225
Namangan viloyati	3 941 643	6 811
Samarqand viloyati	5 150 019	5 180
Surxondaryo viloyati	3 374 314	5 403
Sirdaryo viloyati	913 729	1 345
Toshkent viloyati	4 012 175	5 916
Farg'ona viloyati	4 632 001	8 500
Xorazm viloyati	2 543 695	3 008
Toshkent sh.	3 352 556	8 659
<b>Jami</b>	<b>42 715 178</b>	<b>83 474</b>

Manba: SSV matbuot kotibi // <https://t.me/ssvmatbuotkotibi>





## Kuchaytiruvchi doza “Omicron” shtammidan 68% himoya qiladi

Niderlandiya Milliy Sog‘liqni saqlash instituti (RIVM) koronavirusga qarshi COVID vaksinasining kuchaytiruvchi dozasi samaradorligi bo‘yicha tadqiqot natijalarini e‘lon qildi. Tadqiqotlar Gollandiyada o‘tkazildi. Olimlar kuchaytiruvchi doza Omicron shtammidan 68% ga himoya qilishini aniqladilar [2].

To‘liq emlash kurslaridan so‘ng Delta variantini yuqtirish ehtimoli 76 foizni tashkil qildi va virus bilan kasallangandan so‘ng yuqtirish ehtimoli emlanmagan va ilgari koronavirus bilan kasallanmaganlarga qaraganda 78 foizga kam. Omicron uchun xavflar emlashdan keyin 33% va infeksiyadan keyin 25%ni tashkil etdi. Kuchaytiruvchi dozadan so‘ng himoya darajasi Delta variantiga nisbatan 93% gacha va Omicron shtammiga nisbatan 68% gacha ko‘tarildi.



Shu bilan birga, kuchaytiruvchi dozaning himoya ta‘siri qancha davom etishi haqidagi savol hali ham ochiq. Bundan tashqari, olimlar faqat Omicron BA.1 variantini o‘rganishdi. Oldingi tadqiqotlardan ma‘lum bo‘lishicha, COVID-19 dan kasalxonaga yotqizish xavfi kuchaytiruvchi dozadan so‘ng sezilarli darajada kamayadi [3].

# Hindistonning bir guruh olimlari COVID-19 ning barcha variantlariga qarshi vaktsina joriy qildilar

Hindistonlik olimlar pandemiyaga sabab bo'lgan koronavirusning barcha turlariga qarshi samarali bo'lishi mumkin bo'lgan universal vaktsinani ishlab chiqqanini da'vo qilmoqda [4].

Tadqiqot G'arbiy Bengaliyadagi Kazi Nazrul universiteti va Odishadagi Hindiston fan ta'limi va tadqiqot instituti mutaxassislari tomonidan o'tkazildi. Olimlarning ta'kidlashicha, ular yangi preparat yaratish uchun immunoinformatika usullaridan foydalanganlar.




Qayd etilishicha, AbhiSCovac preparati peptid texnologiyasi asosida yaratilgan. Olimlarning ta'kidlashicha, ko'p maqsadli epitoplil peptid koronavirus infeksiyasining barcha ma'lum shtammlariga qarshi immunitetni shakllantirishga qodir. Vaktsina orqali ko'p qirralilikka erishildi, sababi hind tadqiqotchilari birinchi marta virusning olti xil shtammining boshqa oqsilida o'zgarimas hududlarni aniqlashga muvaffaq bo'lishdi.

"Ishlab chiqilgan vaktsina yuqori barqarorlik, antigenlik va immunitetga ega ekanligi aniqlandi. Bu preparat o'ziga xos yagona vaktsinadir. Dunyoda bir vaqtning o'zida koronavirusning barcha shtammlariga qarshi kurashuvchi boshqa shu kabi vaktsina ishlab chiqilmagan", - deydi AbhiSCovac vaktsina yaratuvchilardan biri Abxigyan.

Tadqiqotchi Choudharining ta'kidlashicha, olimlar jamoasi hisoblash usullaridan foydalangan holda vaktsina ishlab chiqdi va keyingi bosqich ishlab chiqarishni, so'ngra sinovdan o'tkazishni o'z ichiga oladi. "Ushbu vaktsina o'ziga xos yagona vaktsinadir. Choronaviridae oilasining barcha viruslari bilan bir vaqtda kurashish uchun mo'ljallangan dunyoda boshqa hech qanday vaktsina ishlab chiqilmagan", dedi Choudhari [5].

Ishlab chiquvchilar preparat koronavirusning yangi shtammlariga qarshi ham samarali bo'lishini ta'kidlamoqda [6]. Yangi vaktsina bo'yicha tadqiqot nufuzli "Journal of Molechular Liquids" ilmiy jurnali tomonidan nashrga qabul qilindi.



## Indoneziyaning koronavirusga qarshi vaksinasi 3-6 yoshli bolalarni qayta emlash uchun ishlab chiqariladi

Indoneziya sog'liqni saqlash vaziri Budi Gunadi Sadikinining ma'lum qilishicha, Indoneziyada koronavirusga qarshi vaksinasi 3-6 yoshli bolalarni qayta emlash uchun tayyorlanadi [7].

"Vaksina borasida muhokamalarni olib bordik va vaksinani kuchaytiruvchi doza sifatida ishlatish mumkin degan hulosaga keldik", dedi mamlakat sog'liqni saqlash vaziri.

Indoneziya vaksinasining klinik sinovlari 3-6 yoshli bolalar uchun vaktsinalarni ishlab chiqarish imkonini berdi. Indoneziya, shuningdek, vaksinasi boshqa davlatlar tomonidan ma'qullanishiga va Afrikadagi mamlakatlarga ham yordam berishiga umid qilmoqda [8].



# KoviVak ixtirochilari vaksinaning "Omicron" shtammiga qarshi samaradorligini 62% ga baholadilar



M.P. Chumakov nomidagi Immunobiologik preparatlarni tadqiq qilish va ishlab chiqish federal ilmiy markazi direktori Rossiya Fanlar akademiyasi xodimi, Aydar Ishmuxametov markaz tomonidan yaratilgan "KoviVak" vaksinasining "Omicron" shtammiga qarshi samaradorligini 62% deb baholadi [9]. U KoviVak vaksinasi va boshqa vaksinalar bilan

emlanganlar, shuningdek, koronavirusdan tuzalganlar qon zardobining virusni zararsizlantirish qobiliyatini o'rganish bo'yicha dastlabki ma'lumotlarga ishora qildi.

"Tadqiqot natijalariga ko'ra, haqiqatan ham samaradorlik pasaymoqda, bizning ma'lumotlarimiz bo'yicha bugungi kunda bu taxminan 62% ni tashkil etadi, ammo bu, yana bir bor qaytaraman, dastlabki ma'lumotlar", dedi Aydar Ishmuxametov. Ishmuxametov, shuningdek, bolalar uchun KoviVak vaksinasining klinik sinovlari 2022 yilning yoziga qadar davom etishi, preparat 12 yoshdan 17 yoshgacha va 6 yoshdan 11 yoshgacha bo'lgan bolalarda sinovdan o'tkazilishini ma'lum qildi.



Olim Chumakov markazi har doim bolalar uchun vaksinalar yaratiladigan markaz bo'lib kelganini ta'kidladi, "bizning butun virionli platformamiz vaksinani yaratish uchun yanada oqilona, isbotlangan va, ehtimol, eng qulay bo'ladi".

Bundan tashqari, Ishmuhametovning so'zlariga ko'ra markazda olib borilgan tadqiqotlar nitajalari bo'yicha bitta vakcina ikkala infeksiyaga, gripp va koronavirus shtammlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Uning ta'kidlashicha, mazkur ish doirasida markazda klinikoldi tadqiqotlar olib borilgan. Uning fikricha, Chumakov markazida bitta vaksinadagi birikmadan gripp shtammlari va COVID-19 uchun foydalaniladi, shuningdek, "Bu eng yaxshi yondashuv va uning o'z nuqtai nazari bor", deya qo'shimcha qildi u [10].

1. Reported Cases and Deaths by Country, Territory, or Conveyance // <https://www.worldometers.info/coronavirus/> (9.02.2022)
2. Vier miljoen voor scholing coronazorg • Italië schrappt verplichting mondkapje op veel plekken // <https://nos.nl/liveblog/2416226-vier-miljoen-voor-scholing-coronazorg-italie-schrappt-verplichting-mondkapje-op-veel-plekken> (9.02.2022)
3. Насколько эффективна бустерная прививка против Омикрона // [https://healthy.24tv.ua/ru/naskolko-jeffektivna-busternaja-privivka-protiv-omikrona\\_n1862695](https://healthy.24tv.ua/ru/naskolko-jeffektivna-busternaja-privivka-protiv-omikrona_n1862695) (9.02.2022)
4. Indian scientists claim to have designed vaccine against all variants of coronavirus // <https://economictimes.indiatimes.com/news/science/indian-scientists-claim-to-have-designed-vaccine-against-all-variants-of-coronavirus/articleshow/89385066.cms> (9.02.2022)
5. Группа индийских ученых создала эффективную против всех вариантов COVID-19 вакцину // <https://riafan.ru/1603411-gruppa-indiiskih-uchenyh-sozdala-effektivnuyu-protiv-vseh-variantov-covid-19-vakcinu> (9.02.2022)
6. Ученые из Индии заявили о создании вакцины от всех штаммов коронавируса – СМИ // <https://www.m24.ru/news/nauka/08022022/203752> (9.02.2022)
7. Indonesia starts testing homegrown COVID-19 vaccine on humans // <https://www.arabnews.com/node/2021371/world> (9.02.2022)
8. Индонезийскую вакцину от коронавируса предложат детям в возрасте 3-6 лет // <https://regnum.ru/news/society/3501827.html> (9.02.2022)
9. Разработчик оценил эффективность "КовиВака" против "омикрона" в 62% // <https://rg.ru/2022/02/08/razrabotchik-ocenil-effektivnost-kovivaka-protiv-omikrona-v-62.html> (9.02.2022)
10. Создатели "КовиВака" оценили его эффективность против "омикрона" в 62% // <https://www.interfax.ru/russia/820805> (9.02.2022)





O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi  
Ilmiy-texnik axborot markazi

Toshkent-2022